

# MAXSARNI G‘ALLOROL NAVINING DON HOSILDORLIGINI OSHIRISHDA TURLI EKISH MUDDATI VA VA MINERAL O‘G‘ITLAR QO‘LLANILASHDA ENG MAQBUL NATIJALARI

**Satbayev Arislanboy Zinxaydarovich**

Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti tayanch doktoranti

**Aytjanov Baxitjan Uzaqbayevich**

Don va sholi ilmiy ishlab chiqarish birlashmasi

“Moyli ekinlar seleksiyasi va urug‘chiligi” laboratoriyasi mudiri

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22636798>

Qabul qilindi: 1-sentabr 2026-yil • Ma’qullandi: 3-sentabr 2026-yil • Nashr qilindi: 5-sentabr 2026-yil

Maxsar urug‘lari pishib ketsa ham to‘kilmaydi, chunki ular savatcha barglari bilan o‘ralgan bo‘lib, o‘simlikning va savatning tikansimon barglari maxsarni o‘sib turgan paytda uy hayvonlari tomonidan zararlashiga imkon bermaydi. Maxsarning barglarning sarg‘ayishi va savatchalar gul barglarining qizarishi bu maxsarning pishganligi emas, balki bu paytda o‘simlikda nam miqdori yuqori bo‘lib, moy hosil bo‘lish jarayoni davom etayotganidan dalolat beradi. Maxsar yetishtirishda yuqori hosil olish uchun fermer xo‘jaliklarida ekish muddati va o‘g‘itlash myorlari o‘z muddatida va sifatli o‘tkazilishi yuqori maxsar hosilini yetishtirish mumkin bo‘ladi.

X.N. Atabayeva va J.B. Xudayqulovning [1] ta’kidlashicha, maxsar Markaziy Osiyoda keng tarqalgan qurg‘oqchilikka chidamli moyli ekinlardan biri hisoblanadi. Mualliflar maxsar urug‘i tarkibida moy, oqsil va boshqa qimmatli moddalar mavjudligini, undan olinadigan moy oziq-ovqat sanoatida hamda margarin ishlab chiqarishda foydalanilishini qayd etganlar. Shuningdek, maxsarning xalq xo‘jaligidagi ahamiyati uning ko‘p yo‘nalishda foydalanish imkoniyatlari bilan belgilanadi.

D. Yormatova va X.S. Xushvaqtovalarning ma’lumotlariga ko‘ra, maxsar yetishtirish texnologiyasida tuproqqa asosiy ishlov berish, urug‘lik sifatini ta’minlash hamda ekish muddatini to‘g‘ri belgilash muhim agrotexnik tadbirlardan hisoblanadi. Mualliflar maxsar qurg‘oqchilikka chidamli ekin bo‘lsa-da, uning dastlabki rivojlanish davrlarida agrotexnik tadbirlarni sifatli amalga oshirish hosilning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlaydilar [2].

Bizning ilmiy tadqiqot ishlari Qoraqalpog‘iston tuproq-iqlim sharoitida Don va sholi ilmiy ishlab chiqarish birlashmasi Moyli ekinlar seleksiyasi va urug‘chiligi laboratoriyasi dala sharoitida olib borildi. Dala tajribalarini o‘tkazishda fenologik kuzatuvlar, biometrik o‘lchovlar, hosil miqdori va urug‘i sifatini bo‘yicha kuzatuvlar o‘tkazildi. Tadqiqotlarda fenologik kuzatuvlar va laboratorik tahlillar umumqabul qilingan talablarga muvofiq taxlil qilindi. Matematik statistik tahlillar B.A.Dospexov [3] uslubi hamda Ms Excel dasturi asosida amalga oshirildi.

Shuningdek, ilmiy tadqiqotlarimizda maxsarni G‘allaorol navini 2022-2024 yillarda 10, 20 va 30 aprelda ekilganda va o‘g‘itlashni  $N_{60} P_{40} K_{30}$  (St),  $N_{80} P_{50} K_{30}$ ,  $N_{100} P_{60} K_{40}$  va  $N_{120} P_{70} K_{50}$  meyorlarda qo‘llanilganda urug‘larni unib chiqishi, gullashi, pishishi, barg uzunligi, savatchalar diametri, 1000 dona pista vazni hamda hosildorligini o‘rtacha ko‘rsatkichlari aniqlandi 1-jadval.

G‘allaorol navini 20 aprel ekilib, o‘g‘itlar  $N_{100} P_{60} K_{40}$  Ba  $N_{120} P_{70} K_{50}$  hamda 30 aprelda ekilib,  $N_{100} P_{60} K_{40}$  qo‘llanilgan variantlarda Milyutinskiy-114 navi ushbu ekish muddatlari va o‘g‘itlarsh myorlari hamda maxsarni andoza  $N_{60} P_{40} K_{30}$  (St) variantiga nisbatan yuqori ekanligi aniqlandi.

Masxarni G'allaorol navini 20 aprel ekilib, o'g'itlar N<sub>100</sub> P<sub>60</sub> K<sub>40</sub> va N<sub>120</sub> P<sub>70</sub> K<sub>50</sub> hamda 30 aprelda ekilib, N<sub>100</sub> P<sub>60</sub> K<sub>40</sub> qo'llanilgan variantlarda o'rganilgan boshqa barcha variantlarga nisbatan urug'larni unib chiqishi 3-5 % ga, o'simliklarni gullashi 2-3 kunga, o'suv davri 4-6 kunga, barg uzunligi 2-3 santimetrga, 1000 dona pista vazni 3-4 grammga va hosildorligi 2-3 ts/ga yuqori bo'lib, ushbu ekish muddatlari va o'g'itlash meyorlarini yuqori don hosildorligiga erishishni eng maqbul varianlari ekanligi aniqlanib, Qoraqalpog'iston tuproq iqlim sharoitiga tavsiya etildi.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. Atabayeva X.N., Xudayqulov J.B. O'simlikshunoslik. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2018. – B. 199–206.
2. 125. Yormatova D.Yo., Xushvaqтова X.S. Moyli ekinlar. – Samarqand: Zarafshon, 2008. 116 b.
3. Dospexov B.A. Методика полевого опыта. Москва, Агропромиздат, 1985.-351 с.